



XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING QARORI

2021 - yil 30 - dekabr

VI-51-136-7-92-K/21

Oqdaryo tuman hokimligi

Oqdaryo tumanining 2022-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24- moddalari, Budget kodeksining 99-moddasi, “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining “Samarqand viloyatining 2022-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdan tashqari oltinchi chaqiriq, ellik birinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-sonli Qonuni hamda Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining “Samarqand viloyatining 2022-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining “2022-yil uchun Samarqand viloyatining 2022-yilgi mahalliy budgeti tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 30-dekabrdagi VI-53-126-7-0-K/21-sonli qaroriga muvofiq, Oqdaryo tuman mahalliy budgetining 2022-yil uchun daromadlari 92 301 000,0 ming so‘m, xarajatlari 145 532 499,0 ming so‘m proqnoz qilinganligi hamda respublika budgetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar 53 231 499,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2022-yil uchun tuman mahalliy budgeti daromadlari proqnozi 1-ilovaga muvofiq;

2022-yil uchun tumanning, tuman budgetidan hududiy budget mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga

muvofiq tasdiqlansin.

4. 2022-yil uchun tuman mahalliy budgeti zahira jamg‘armasi hajmlari 1 372 948,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

5. 2022-yil uchun tuman mahalliy budgetidan fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi uchun ajratiladigan mablag‘lar hajmi 6 864 741,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

6. 2022-yil uchun tumanning, tuman budgeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budget mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 046 000,0 ming so‘mni belgilansin.

7. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budgetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budget xarajatlarini hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

8. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashi qaroriga asosan 2022-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman budgetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan cement xom-ashyosi va cement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno;

yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aktsiz solig‘i;

aylanmadan soliq;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdchlarda davlat aktivlarini ijaraga berish va xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar;

ayrim tovarlarning chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘im;

avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar

organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to‘lanadigan yig‘imlar.

Mobil aloqa xizmatlari uchun, sigaret uchun va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa to‘lovlar viloyatning, viloyat budgeti hamda tuman mahalliy budgeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 45 foiz miqdorda tuman budgetiga;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foya solig‘idan tashqari) 30 foiz miqdorida tuman budgetiga;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona yig‘imlaridan tashqari) 10 foiz miqdorda tuman budgetiga.

9. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (D.Adilova):

budget daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish, iqtisodiy salohiyatni oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budget mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish;

tegishli ravishda hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilarning budget mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashlariga kiritib borilishini ta’minlasin.

10. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Ergasheva) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi



Adilova D. I.

Халқ депутатлари Оқдарё туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-136-7-92-K/21-сон карорига
1-илова

**Oqdaryo tumani mahalliy byudjetining daromadlarining 2022
yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari**

T/R	Daromad turlari	JAMI	JAMI	ming so‘mda
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	13 075 200,0		
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1 566 300,0		
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 543 000,0		
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	6 248 000,0		
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 000 000,0		
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 885 000,0		
7	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	6 200 000,0		
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 509 700,0		
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	7 801 600,0		
10	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiya qilishdagi aksiz solig‘i	15 343 000,0		
11	Korxonalar aylanmasidan soliq	5 705 000,0		
12	Yig‘imlar	1 105 300,0		
13	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	37 900,0		
14	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	9 947 000,0		
15	Mobil aloqa xizmati	5 667 000,0		
16	Sigaret uchun aksiz solig‘i	10 667 000,0		

Халқ депутатлари Оқдарё туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-51-136-7-92-K/21-сон карорига
2-илова

**2022 yil uchun Oqdaryo tumani byudjetidan xududiy byudjet mablag'larini
taqsimlovchilarga ajratiladigan byudjet ajratmalarining cheklangan
miqdorlari**

ming so'mda

№	Ko'rsatkichlar	2022 -yil
	Oqdaryo tuman bo'yicha xarajatlari miqdori, Jami	145 532 499,0
1	Tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi	7 425 844,0
2	Tuman xalq ta'limi bo'limi	6 935 164,0
3	Tuman Tibbiyot birlashmasi	46 541 028,0
4	Tuman Madaniyat bo'limi	5 371 582,0
5	Tuman Turizmni rivojlantirish bo'limi	2 170 030,0
6	Tuman Bandlikk va mehnat munosabatlari bo'limi	591 645,0
7	Tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	1 185 024,0
8	Tuman irrigasiya bo'limi	864 679,0
9	Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi	999 000,0
10	Tuman hokimligi Moliya bo'limi	877 039,0
11	Tuman hokimligi	71 145 411,0
12	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Oqdaryo tumanidagi muassasalar	657 212,0
13	Xalq deputatlari Tuman Kengashi	166 375,0
14	Mahalla va oila boshqarmasi	602 466,0
	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	53 231 499,0
	Ulushi	0,0